

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KO‘RGAZMALI  
TA’LIM METODINING AHAMIYATI**

**Xasanov Ergash Shonazarovich**

*Angren Universiteti “Pedagogika va psixologiya”*

*kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini va ta’lim sifatini oshirishda ko‘rgazmali (illyustratsion) ta’lim metodidan foydalanishning ahamiyati to‘g’risida fikr yuritilgan.

**Kalit sozlar:** kreativlik, ijodkorlik, kommunikativlik, ko‘rgazmali (illyustratsion) ta’lim.

Respublikamizda olib borilayotgan ta’limga oid davlat siyosatining bosh omillaridan biri teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Ta’limdagi yangilanish faqat o‘quvchilarga yangicha bilim berishni nazarda tutmasdan, balki jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o‘zgartirishni ham ko‘zda tutadi. Endilikda milliy pedagogikamizning maqsad va vazifalari ham o‘zgarib, faqat bilim berishni emas, balki har jihatdan komil shaxsni tarbiyalashni ham o‘z ichiga oladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi(<sup>1</sup>) farmonida:

- O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg’or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish;

-Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatdan yangilash;

-O‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish- kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Bugungi kunda yurtimiz jadallik bilan har sohada rivojlanib bormoqda.Barcha sohalarning rivojlanish zamirida esa, albatta, ta’lim va tarbiya yotadi. Ayniqsa, dastlabki asosiy tamal toshini boshlang‘ich ta’lim qo‘yib berar ekan, hozirgi kunda bu borada davlatimiz tomonidan o‘qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta’minalash, ular faoliyatiga ilg’or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o‘quvchilarning dastlabki bilim egallah poydevori mustahkam bo‘lishi, barcha fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, tadbiq etib kelinmoqda.Ma’lumki, o‘quvchilarning dastlabki bilim egallah davri bu boshlang‘ich ta’lim hisoblanib, bu davr o‘ziga xos tarzda o‘quvchilarning o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining

asosiy malaka va ko‘nikmalar, ijodiy fikrlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati asoslarining egallab olinishini ta’minlaydi, hamda boshlang’ich sinflarda o‘quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko‘nikmalar, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi, ya’ni komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim mustahkam poydevor rolini o‘taydi. Boshlang‘ich ta’lim DTS dasturi o‘quvchilarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Hozirgi kunda har bir darsni yangi pedagogik texnologiya asosida yaratish, o‘quvchilar ongida kreativlik, ijodkorlik va kommunikativlikni hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish davr talabidir. Ta’lim jarayonida ko‘rgazmali (illyustratsion) ta’lim metodlari orqali o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni kamaytirishga, ularning mustaqil bilim olishga intilishiga, dunyoqarashlarining kengayishiga erishish mumkin. Chunki bolalarning yosh xususiyatlari tufayli ular bilim va ko‘nikmalarni ko‘proq vizual yordam orqali o‘zlashtiradilar va bu metod o‘quvchilarni mavzuga qiziqtirishga, bilimlarni samarali o‘zlashtirishga va uzoq muddat xotirada saqlab qolishga yordam beradi. Bundan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘rgazmali (illyustratsion) ta’lim metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi, ularning qiziqishini oshiradi va o‘rganilayotgan materialni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu ta’lim metodini qo‘llashda dars jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan asosiy vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1.Rasmlar va diagrammalar
- 2.Videolar va audio resurslar
- 3.Interaktiv ekran va slaydlar
- 4.Maket va modellar
- 5.O‘quvchilar qo‘li bilan yasashi mumkin bo‘lgan materiallar

Ko‘rgazmali (illyustratsion) ta’limning afzalliklari esa quyidagilardan iborat:

1.Diqqatni jamlash va qiziqish uyg‘otish- ko‘rgazmali vositalar o‘quvchilarning diqqatini darsga jalb qiladi va ularda ma’lumotga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Rangli ko‘rgazmalar, rasmlar, diagrammalar va mul’timedia materiallaridan foydalanish dars mazmunini jonlantiradi.

2.Qiyin tushunchalarni soddalashtirish- ko‘rgazmali vositalar qiyin tushunchalarni o‘quvchilar uchun oson tushunarli qilib berish imkonini yaratadi. Masalan, alifboni o‘rgatishda harflarga mos rasmlar yoki maketlardan foydalanish bolalar uchun samarali bo‘ladi.

3.Yodda qolishni osonlashtirish- vizual ma’lumotlar orqali o‘quvchilar materialni yaxshiroq eslab qolishadi. Masalan, harflar va so‘zlar bilan bog‘liq videolar, turli ko‘rgazmali tablolardan yordamida ularning yodlash jarayoni samarali bo‘ladi.

4.Mustaqil o‘qish va yozish ko‘nikmasini rivojlantirish- ko‘rgazmali vositalar orqali o‘quvchilarda mustaqil o‘qish va yozishga qiziqish paydo bo‘ladi.Ular so‘zlarni to‘g’ri yozish va talaffuz qilishni tezroq o‘zlashtiradilar.

5.Interaktiv ijodkorlikni rivojlantirish-mul’timedia vositalari yordamida o‘quvchilar turli interfaol mashqlarda ishtirot eta oladilar. Masalan, ekranda harflarni to‘g’ri birlashtirish mashg‘ulotlari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ta’lim jarayonida illyustratsion vositalardan samarali foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

1.Mos vizual materiallarni tanlash- dars mavzusi va maqsadiga mos keladigan illyustratsiyalarni tanlash muhim.

2.Sifatlari va aniq tasvirlardan foydalanish- illyustratsiyalar aniq va yuqori sifatli bo‘lishi kerak, bu o‘quvchilarni ta’lim mazmunini yaxshi tushunishiga yordam beradi.

3.Illustratsiyalarning miqdorini me’yorda saqlash- haddan tashqari ko‘p vizual materiallar o‘quvchilarni chalg‘itishi mumkin, shuning uchun ularni me’yorida qo‘llash lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,boshlang‘ich sinflarda ko‘rgazmali (illyustratsion) ta’lim metodidan unumli foydalanish o‘quvchilarning savodxonligini va ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilanishiga xizmat qiladi hamda bilim darajasini oshirishga va barcha fanlar bo‘yicha muvoffaqiyatli natijalarga erishishiga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi Farmoni. 29.06.2019-yil
2. Ismatova.Sh.B. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari”. “Science and education” scientific Journal,2020-yil. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz).
3. Tolipov O‘, Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2019-yil.
4. [www.Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)